

**BUXORO DAVLAT TEXNIKA UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/28.02.2022.T.101.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

QARSHI DAVLAT TEXNIKA UNIVERSITETI

ORIPOVA LOBAR NORBOYEVNA

**MDEANI KO‘PIK HOSIL QILUVCHI KOMPONENTLARDAN
TOZALASH UCHUN MODIFIKATSIYALANGAN FAOLLASHTIRILGAN
KO‘MIR OLIH JARAYONINING TEXNOLOGIYASINI ISHLAB
CHIQISH**

02.00.08 – Neft va gaz kimyosi va texnologiyasi

**TEXNIKA FANLARI bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Buxoro-2025

**Texnika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)
по техническим наукам**

**Contents of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD)
on technical sciences**

Oripova Lobar Norboyevna

MDEA ni ko‘pik hosil qiluvchi komponentlardan tozalash uchun
modifikatsiyalangan faollashtirilgan ko‘mir olish jarayonining
texnologiyasini ishlab chiqish.....3

Орипова Лобар Норбоевна

Разработка технологии получения модифицированного
активированного угля для очистки МДЭА от пенообразующих
компонентов.....21

Oripova Lobar

Development of a technology for the production of modified
activated carbon for the purification of MDEA from
foam-forming components.....41

E‘lon qilingan ishlar ro‘uxati

Список опубликованных работ
List of published works.....45

**BUXORO DAVLAT TEXNIKA UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc. 03/28.02.2022.T.101.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

QARSHI DAVLAT TEXNIKA UNIVERSITETI

ORIPOVA LOBAR NORBOYEVNA

**MDEANI KO‘PIK HOSIL QILUVCHI KOMPONENTLARDAN
TOZALASH UCHUN MODIFIKATSIYALANGAN FAOLLASHTIRILGAN
KO‘MIR OLISH JARAYONINING TEXNOLOGIYASINI ISHLAB
CHIQUISH**

02.00.08 – Neft va gaz kimyosi va texnologiyasi

**TEXNIKA FANLARI bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Buxoro-2025

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2021.1.PhD/T2043 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Doktorlik dissertatsiyasi Qarshi davlat texnika universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengashning veb-sahifasida (www.bstu.uz) hamda "Ziyonet" Axborot ta'lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Hayitov Ruslan Rustamjonovich
texnika fanlari doktori, katta ilmiy xodim

Rasmiy opponentlar:

Maxmudov Muxtor Jamolovich
kimyo fanlari doktori, professor

Azimova Shodiya Abrarovna
texnika fanlari falsafa doktori (PhD), dotsent

Yetakchi tashkilot:

Berdaq nomidagi Qoraqalpoq davlat universiteti

Dissertatsiya himoyasi Buxoro davlat texnika universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.03/28.02.2022.T.101.01 raqamli Ilmiy kengashning 2025-yil 28-noyabr soat 9⁰⁰ dagi majlisida bo'lib o'tadi (Manzil: 200117, Buxoro shahar, Q.Murtazoyev ko'chasi, 15-uy. Tel.: (+99865)223-78-84, faks: (+99865)223-78-84, e-mail: bmti_info@edu.uz).

Dissertatsiya bilan Buxoro davlat texnika universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (395-raqami bilan ro'yxatga olingan). (Manzil: 200117, Buxoro shahar, Q.Murtazoyev ko'chasi, 15. Tel.: (+99865) 223-78-84).

Dissertatsiya avtoreferati 2025-yil 13-noyabr kuni tarqatildi.
(2025-yil 20-avgustdagi №12-raqamli restr bayonnomasi).



S.F. Fozilov

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash
rasi texnika fanlari doktori, professor

A.T.Oltiyev

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash
Ilmiy kotibi texnika fanlari doktori, dotsent

HLB. Do'stov

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy
kengash qoshidagi ilmiy seminar raisi
kimyo fanlari doktori, professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Dunyoda neft va gaz sanoatining jadal rivojlanishi sifatli neft-gaz mahsulotlarini ishlab chiqarishga, moddalarni saralash va tozalashda samarador adsorbentlarga bo'lgan ehtiyojning ortib borishiga olib kelmoqda. Shuning uchun organik va noorganik xomashyolar asosida turli adsorbentlar: seolitlar, silikagellar, faollashtirilgan ko'mirlar olish va ularni neft va neft mahsulotlarining sifatini yaxshilashda, tabiiy gazni nordon komponentlardan tozalash jarayonida qo'llash neft va gazni qayta ishlash, neft va gaz kimyosi, polimerlar kimyosi sohalarida muhim ahamiyatga ega.

Bugungi kunda jahonda tabiiy gazni nordon komponentlardan tozalash jarayonida ishlatilgan qimmatbaho alkanolaminlarni filtrlash uchun faollashtirilgan ko'mirlar olish bo'yicha quyidagi ilmiy yechimlarni asoslash, jumladan: mikrog'ovakli faollashtirilgan ko'mirlar olish uchun mos keluvchi xomashyolarni tanlash; optimal harorat rejimini aniqlash; olingan faollashtirilgan ko'mirlarning kolloid kimyoviy xossalarni tadqiq qilish, tuzilishini va kimyoviy tarkibini aniqlash; shuningdek, alkanolaminlar suvli eritmalarining ko'piklanish xususiyatlariga turli organik va noorganik moddalarning ta'siri qonuniyatlarini asoslash hamda ko'piklanishning oldini olishda faollashtirilgan ko'mirlarning ta'sirini ilmiy asoslashga alohida e'tibor berilmoqda.

Respublikamizda tabiiy gazni qazib olish ko'lamini kengaytirish, uni sifatli tozalab, iste'molchilarga yetkazish, tozalash jarayonida ishlatiladigan, import hisobiga keltiriladigan alkanolaminlarning ishlash muddatini uzaytirish va ko'p miqdorda yo'qotilishi oldini olish, shuningdek, turli rusumli faollashtirilgan ko'mirlarni mahalliy xomashyolar asosida ishlab chiqarish, ularning adsorbsion va kolloid kimyoviy xususiyatlarini yaxshilash bo'yicha ilmiy va amaliy natijalarga erishilmoqda. Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasida "Iqtisodiyotga innovatsiyalarni keng joriy qilish, sanoat korxonalarini va ilm-fan muassasalarining kooperatsiya aloqalarini rivojlantirish"¹ kabi muhim vazifalar belgilab berilgan. Bu borada mahalliy tabiiy resurslar asosida import o'rnini bosuvchi va talab darajasidagi turli rusumli faollashtirilgan ko'mirlar ishlab chiqarish, ularning selektivligini oshirish uchun turli usullar bilan modifikatsiyalash, tabiiy gazni nordon komponentlardan tozalashda ishlatilgan alkanolaminlarni regeneratsiyalashdagi muammolarni bartaraf etish, ularni qayta ishlatishda ko'piklanishining sabablarini tadqiq qilish va faollashtirilgan ko'mir bilan filtrlash texnologiyalarini takomillashtirish muhim ahamiyatga ega.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son «2022-2026-yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida»gi Farmoni, 2018-yil 25-oktabrdagi «O'zbekiston Respublikasida kimyo sanoatini jadal rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi PQ-3983-sonli hamda 2019-yil 3-apreldagi «Kimyo sanoatini yanada isloh qilish va uning investitsiyaviy jozibadorligini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi PQ-4265

¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi PF-60-son "2022-2026 yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida" Farmoni

sonli Qarorlarida, shuningdek, ushbu faoliyatga tegishli boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda mazkur dissertatsiya tadqiqotlari muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga bog'liqligi. Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining VII «Kimyo texnologiyalari va nanotexnologiyalar» ustuvor yo'nalishiga muvofiq holda bajarilgan.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. Tabiiy gazni nordon komponentlardan tozalash jarayonida alkanolaminlarning ko'piklanishini oldini olish hamda filtrlovchi xususiyatiga ega bo'lgan faollashtirilgan ko'mirlarni olish va ularning adsorbsion xossalari yaxshilash bo'yicha dunyoda quyidagi olimlar: M.M. Dubinin, N.V. Kelsev, A.V. Kiselev, S.S. Serpinskiy, T.M. Bekirov, A.I. Afanasev, E.Dj. Styuart, G.A. Agaev, V.M. Kapustinlar va mamlakatimiz olimlaridan: Axmedov K.S., Salimov Z.S., Ryabova N.D., Raxmatkariev G.U., Mo'minov S.Z., Yodgorov N., Xamidov B.N., Narmetova G.R., Saydaxmedov Sh.M., Abduraximov S.A., Yusupov F.M., Ismailova M.G., Qudratov A.M., Shermatov B.E., Hayitov R.R. va boshqalar ilmiy-tadqiqot ishlarini olib borishgan.

Yuqorida keltirilgan olimlar tomonidan alkanolaminlarning ko'piklanishini oldini olish, yangi turdagi ko'pik so'ndiruvchi reagentlarni olish, faollashtirilgan ko'mirlarni olishning turli usullarini ishlab chiqish, ularning qo'llanilish sohalariga bog'liq holda kolloid-kimyoviy, adsorbsion ko'rsatkichlarini aniqlash, adsorbentlarning organik moddalar etalonlari bo'yicha dinamik sig'imini aniqlash usulini ishlab chiqish, samarali adsorbentlar olish, tabiiy gazni nordon komponentlardan tozalash texnologiyasini takomillashtirish, adsorbent va adsorbentlarni regeneratsiya qilishning samarali usullarini ishlab chiqish bo'yicha ilmiy-tadqiqot ishlari amalga oshirilgan.

Ammo qimmatbaho alkanolaminlarning tabiiy gazni tozalash jarayonidagi ekspluatatsiyasi davrida yo'qotilishi va bu muammoni bartaraf etish, organik va noorganik moddalar miqdorini aminlar eritmalarining ko'piklanish xususiyatlariga ta'siri qonuniyatlarini aniqlash, ishlatilgan alkanolaminlarni sifatli regeneratsiya qilish va adsorbsion tozalash, alkanolaminlarni adsorbsion tozalash uchun organik xomashyo asosida mikrog'ovakli adsorbentlarni olish bo'yicha tadqiqot ishlari hozirgi vaqtga qadar o'tkazilmagan.

Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi. Dissertatsiya tadqiqoti Qarshi davlat texnika universiteti ilmiy-tadqiqot faoliyatining ustuvor yo'nalishlari rejasiga muvofiq – “Neft-gaz kimyo sanoati energiya va resurs tejamkor texnologiyalar muammolari va ularning yechish choralari” 8-yo'nalish doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi metildietanolaminni (MDEA) ko'pik hosil qiluvchi komponentlardan tozalash uchun modifikatsiyalangan faollashtirilgan ko'mir olish jarayonining texnologiyasini ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

tabiiy gazni tozalash jarayonida MDEAni ko'piklanish sabablarini aniqlash;

MDEA eritmasining ko'piklanish balandligi va vaqtiga organik va noorganik moddalarning ta'sirini tadqiq qilish;

sanoatda alkanolaminlarni adsorbsion tozalash uchun ishlatiladigan faollashtirilgan ko'mirlarning tuzilishi va xossalarini o'rganish;

mahalliy xomashyolar: o'rik danagining po'stlog'i, chinor, tut, archa, terak daraxtlari yog'ochi hamda g'o'zapoya asosida faollashtirilgan ko'mir namunalari olish;

faollashtirilgan ko'mir namunalari olish va ularni faollashtirish jarayoni parametrlarini tadqiq qilish;

olingan faollashtirilgan ko'mir namunalari akril kislota yordamida kimyoviy usulda faollashtirish jarayonini tadqiq qilish hamda ularning kolloid-kimyoviy va adsorbsion xossalarini aniqlash;

ishlatilgan MDEA eritmasini olingan yangi faollashtirilgan ko'mir namunalari bilan tozalash jarayoniga bog'liq tadqiqotlarni amalga oshirish;

mahalliy xomashyodan faollashtirilgan ko'mir olish texnologiyasini ishlab chiqish va uning asosida laboratoriya qurilmasini yaratish;

faollashtirilgan ko'mirning sanoat tajriba-sinov namunasini ishlab chiqarish va tegishli korxonalarda sanoat sinovlarini o'tkazish;

olib borilgan ilmiy tadqiqotlar natijalari asosida ilmiy-texnikaviy hujjatlarni tayyorlash va rasmiylashtirish.

Tadqiqotning ob'yekti sifatida Gazli gazni qayta ishlash zavodining 30% li va Muborak gazni qayta ishlash zavodining 40 % li MDEA eritmasi, mahalliy xomashyolar: o'rik danagining po'stlog'i, chinor, tut, archa, terak daraxtlari yog'ochi hamda g'o'zapoya olingan.

Tadqiqotning predmeti meva danaglari po'stlog'i asosida olingan faollashtirilgan ko'mirlarning fizik-kimyoviy, tuzilish va adsorbsion xossalari hamda texnik xususiyatlari, ularni olish jarayonining maqbul rejimi parametrlari, faollashtirilgan ko'mirni laboratoriya va ishlab chiqarishda sinovdan o'tkazish texnologik rejimlarini aniqlash hisoblanadi.

Tadqiqotning usullari. Dissertatsiya tadqiqotini amalga oshirishda fizik-kimyoviy (IQ-spektroskopiya, yuqori vakuumli Mak-Ben tarozisidagi tahlillar) va analitik-kimyoviy tahlillar usullari hamda ko'mirni olish va faollashtirishning fizik va kimyoviy usullaridan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

gidrofob moddalar: parafin, naften, aromatik uglevodorodlar va kondensat fraksiyalari hamda turli noorganik tuzlar MDEAning ko'piklanish qobiliyatiga ta'siri qonuniyati o'rnatilib, ko'pikning balandligi va uning yashash vaqtini oshirishi, gidrofil moddalar: spirtlar va aminospirtlar esa ko'piklanishni kamaytirishi yoki umuman yuzaga keltirmasligi ilmiy asoslangan;

meva danaglari po'stlog'i va turli daraxtlar yog'ochi asosida mikro- va mezog'ovakli faollashtirilgan ko'mir olishda xomashyoni karbonizatsiyalash jarayonining harorati – 300-400°C, vaqti – 1 soat, karbonizatni suv bug'i bilan faollashtirish jarayonining harorati – 800°C, vaqti – 4 soatga teng bo'lgan maqbul rejimi ishlab chiqilgan;

suv bug‘i yordamida faollashtirilgan ko‘mirni akril kislotaning 15 % li eritmasini ko‘mirga shimdirish va namunani 100°C haroratda 30 minut vaqtda initsiator sifatida 3 % li vodorod peroksidni qo‘llash orqali modifikatsiyalash usuli ishlab chiqilgan;

modifikatsiyalangan faollashtirilgan ko‘mir tarkibida poliakril kislota ($C_2H_3COOH)_n$, akrilonitril ($CH_2=CH-C\equiv N$), polibutilmetakrilat ($C_8H_{14}O_2$), polimetilmetakrilat ($(C_5H_8O_2)_n$) va shu kabi boshqa ko‘p funksional guruhlari bor moddalarning hosil bo‘lganligi hisobiga ko‘mir organik qo‘shimchalardan tashqari noorganik qo‘shimchalar, ya‘ni Na^+ , K^+ , NH_4^+ , Ca^{2+} , Mg^{2+} metall kationlarini ham ion almashinish yo‘li orqali adsorbsiyalashi isbotlangan;

tabiiy gazni aminli tozalash jarayonida ishlatilgan alkanolaminlar eritmalarini filtrlash uchun quvvati 300 t/yil bo‘lgan meva danaglari po‘stlog‘i va turli daraxtlar yog‘ochlari asosida modifikatsiyalangan faollashtirilgan ko‘mir olish jarayoni texnologiyasi ishlab chiqilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

meva danaglari po‘stlog‘i, turli daraxtlar yog‘ochi hamda g‘o‘zapoya asosida faollashtirilgan ko‘mir olish jarayonining texnologiyasi ishlab chiqilgan va uning asosida laboratoriya qurilmasi yaratilgan;

faollashtirilgan ko‘mir olishda karbonizatsiya jarayoni, suv bug‘i yordamida fizik usulda hamda akril kislota yordamida kimyoviy usulda faollashtirish jarayonlarining maqbul rejimlari ishlab chiqilgan;

meva danaglari po‘stlog‘i, turli daraxtlar yog‘ochi hamda g‘o‘zapoya asosida faollashtirilgan ko‘mir olish uchun laboratoriya qurilmasi yig‘ilgan;

yig‘ilgan laboratoriya qurilmasida turli rusumli faollashtirilgan ko‘mir namunalari olingan.

Tadqiqot natijalarning ishonchliligi analitik, fizik-kimyoviy tahlil, laboratoriya tajribalari, ishlab chiqarish sinovlari natijalari hamda faollashtirilgan ko‘mirlar ishlab chiqarishning amaldagi standart talablari bo‘yicha aniqlanganligi bilan tasdiqlangan.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati gidrofob moddalar: parafin, naften, aromatik uglevodorodlar va kondensat fraksiyalari hamda turli noorganik tuzlar MDEAning ko‘piklanish qobiliyatiga ta‘siri qonuniyati o‘rnatilib, ko‘pikning balandligi va uning yashash vaqtini oshirishi, gidrofil moddalar: spirtlar va aminospirtlar esa ko‘piklanishni kamaytirishi yoki umuman yuzaga keltirmasligi ilmiy asoslanganligi, meva danaglari po‘stlog‘i va turli daraxtlar yog‘ochi asosida mikro- va mezog‘ovakli faollashtirilgan ko‘mir olishda xomashyoni karbonizatsiyalash jarayonining harorati – 300-400°C, vaqti – 1 soat, karbonizatni suv bug‘i bilan faollashtirish jarayonining harorati – 800°C, vaqti – 2 soatga teng bo‘lgan maqbul rejimi ishlab chiqilganligi, suv bug‘i yordamida faollashtirilgan ko‘mirni akril kislotaning 15 % li eritmasini ko‘mirga shimdirish va namunani 100°C haroratda 30 minut vaqtda initsiator sifatida 3 % li vodorod peroksidni qo‘llash orqali modifikatsiyalash usuli ishlab chiqilganligi, modifikatsiyalangan faollashtirilgan ko‘mir tarkibida poliakril kislota ($C_2H_3COOH)_n$, akrilonitril ($CH_2=CH-C\equiv N$), polibutilmetakrilat ($C_8H_{14}O_2$),

polimetilmetakrilat ((C₅H₈O₂)_n) va shu kabi boshqa ko'p funksional guruhlar bor moddalarning hosil bo'lganligi hisobiga ko'mir organik qo'shimchalardan tashqari noorganik qo'shimchalar, ya'ni Na⁺, K⁺, NH₄⁺, Ca²⁺, Mg²⁺ metall kationlarini ham ion almashinish yo'li orqali adsorbsiyalashi isbotlanganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati mahalliy xomashyolar asosida import o'rnini qoplovchi modifikatsiyalangan faollashtirilgan ko'mir ishlab chiqarish texnologiyasining loyihalanishiga, chiqindi xomashyoning foydali mahsulotgacha qayta ishlanishi orqali utilizatsiya qilinishiga, meva danaglari po'stlog'i hamda turli xil daraxtlar yog'ochi asosida faollashtirilgan ko'mir olish jarayonining muqobil rejimini ishlab chiqish orqali tayyor mahsulot sifatining yaxshilanishiga, faollashtirilgan ko'mir namunalari akril kislota yordamida kimyoviy usulda modifikatsiyalash orqali MDEA eritmasi tarkibidagi mineral moddalarning kamaytirilishiga, shuningdek, mahalliy faollashtirilgan ko'mirni sanoatda ishlatilayotgan AG-3, HX-30 rusumli ko'mirlar bilan raqobatlasha olishi tufayli uni amaliyotga tatbiq qilinishiga xizmat qiladi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. MDEA ni ko'pik hosil qiluvchi komponentlardan tozalash uchun modifikatsiyalangan faollashtirilgan ko'mir olish jarayonining texnologiyasini ishlab chiqish bo'yicha olingan ilmiy natijalar asosida:

mahalliy xomashyolar: o'rik danagi po'stlog'i, tut va chinor daraxtlari yog'ochi asosida faollashtirilgan ko'mir olish va ularni modifikatsiyalash usuli Gazli neft va gaz qazib chiqarish boshqarmasining ishlab chiqarish jarayonlariga tadbiq qilish bo'yicha istiqbolli rejasiga kiritilgan («O'zbekneftgaz» AJning 2023-yil 22-avgustdagi 08-18-8-658-son ma'lumotnomasi). Natijada, MDEA eritmasi tarkibidagi ko'pik hosil qiluvchi va metallar korroziyasiga sabab bo'luvchi qo'shimchalar: H₂S miqdori – 0,06 dan 0,0015 mol/mol gacha; CO₂ – 0,36 dan 0,01 mol/mol gacha; mineral tuzlar miqdori – 8,90 dan 2,63 g/kg gacha kamayishi imkonini beradi;

akril kislota bilan modifikatsiyalangan AU-KU, AU-T va AU-K rusumli faollashtirilgan ko'mirlarni olish texnologiyasi Gazli neft va gaz qazib chiqarish boshqarmasi hamda Muborak gazni qayta ishlash zavodining ishlab chiqarish jarayonlariga tadbiq qilish bo'yicha istiqbolli rejalariga kiritilgan («O'zbekneftgaz» AJning 2023-yil 22-avgustdagi 08-18-8-658-son ma'lumotnomasi). Natijada, MDEA eritmasining ko'piklanish balandligi – 42 dan 15 mm gacha, ko'piklanish vaqti – 33 dan 9 sek. gacha kamayishi, shuningdek, MDEA eritmasi tarkibidagi ko'pik hosil qiluvchi va metallar korroziyasiga sabab bo'luvchi qo'shimchalar: H₂S miqdori – 0,13 dan 0,002 mol/mol gacha, CO₂ – 0,43 dan 0,015 mol/mol gacha, mineral tuzlar – 9,48 dan 2,23 g/kg gacha kamayishi imkonini beradi.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Ushbu tadqiqot natijalari 2 ta xalqaro va 6 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokamadan o'tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi. Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 17 ta ilmiy ish nashr etilgan, shulardan 1 ta monografiya va O'zbekiston Respublikasi Oliy Attestatsiya

Komissiyasi tomonidan doktorlik dissertatsiyalarining asosiy ilmiy natijalarini chop etishga tavsiya qilingan ilmiy nashrlarda 6 ta maqola – 4 tasi xorijiy va 2 tasi respublika ilmiy jurnallarida chop etilgan.

Dissertatsiyaning hajmi va tuzilishi. Dissertatsiya tarkibi kirish, to‘rtta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati va ilovalardan iborat. Dissertatsiya hajmi 110 betni tashkil etadi.


DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Dissertatsiyaning **kirish** qismida masalaning qo‘yilishi qisqacha tavsiflangan, dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zaruriyati asoslangan, maqsadi va vazifalari, tadqiqot ob‘yektini hamda predmeti ifodalangan, tadqiqotning O‘zbekiston Respublikasi fan va texnologiyalarini rivojlantirishning ustuvor yo‘nalishlariga mosligi ko‘rsatilgan, tadqiqotda erishilgan ilmiy yangiliklar, amaliy natijalarning ishonchligi asoslangan, nazariy va amaliy qiymati ochilgan, natijalarning ishlab chiqarishga joriy etilishi haqida ma‘lumotlar keltirilgan, olingan natijalarning aprobeatsiyasi va dissertatsiya ishining tuzilishi va hajmi bo‘yicha ma‘lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning “**Tabiiy gazni nordon komponentlardan tozalashning zamonaviy texnologiyalari va faollashtirilgan ko‘mirlardan foydalanish**” deb nomlangan birinchi bobida dunyoda hozirgi vaqtda tabiiy gazni qazib olishning keskin sur‘atlar bilan o‘sishi hamda bu borada dunyo reytingining holati va mamlakatimizning ushbu reytingda tutgan o‘rni to‘g‘risidagi so‘nggi ma‘lumotlar keltirilgan bo‘lib, xususan tabiiy gazni qayta ishlashdagi muammolar, ayniqsa uni tarkibidagi nordon komponentlardan tozalashning turli usullari va texnologiyalari, shuningdek, tabiiy gazni nordon komponentlardan tozalashda alkanolaminlarning yo‘qotilishi bo‘yicha ilmiy asoslangan ma‘lumotlar yoritilgan. Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha dunyoda va mamlakatimizda olib borilgan ilmiy-tadqiqot ishlarning tahlili asosida ushbu tadqiqotning maqsad va vazifalari belgilab olingan.


Dissertatsiyaning “**Faollashtirilgan ko‘mirlarning sifat ko‘rsatkichlarini aniqlashning asosiy usullari va alkanolaminlarning ko‘piklanish omillarini tadqiq qilish**” deb nomlangan ikkinchi bobida faollashtirilgan ko‘mirlarning tuzilish, adsorbsion va sifat ko‘rsatkichlarini aniqlash imkonini beruvchi davlat standartlariga mos keluvchi klassik va zamonaviy usullar tahlili keltirilgan. Shuningdek, tabiiy gazni qayta ishlash zavodlaridagi etanolaminlar eritmalarining ko‘piklanish qobiliyatini aniqlashning maxsus metodik yo‘riqnomasi berilgan. Etanolamin eritmalarining ko‘piklanish xususiyatlari bo‘yicha standart parametrlar o‘rnatildi. Ushbu standart parametrlarga ko‘ra tozalangan etanolamin eritmasining ko‘piklanish jarayonidagi ko‘pik balandligi 25-40 mm intervalida, ko‘pikning buzilish vaqti esa 10-20 sekund intervalida bo‘lishi lozim.

25 % li MDEA eritmasida turli xil aralashmalar ishtirokida yuzaga keladigan ko‘piklanishni aniqlash bo‘yicha tadqiqot amalga oshirildi va olingan natijalar 1-rasmda keltirildi.



1-rasm. Turli qo'shimchalarning 25% MDEA eritmasining ko'pik hosil qilish qobiliyatiga ta'sirini ko'rsatuvchi grafik: 1 – pentan (C_5H_{12}); 2 – oktan (C_8H_{18}); 3 – nonan (C_9H_{20}); 4 – undekan ($C_{11}H_{24}$); 5 – siklogeksan (C_6H_{12}); 6 – siklopentan (C_5H_{10}); 7 – 150°C fraksiyali kondensat; 8 – 120°C fraksiyali kondensat; 9 – metanol; 10 – etanol; 11 – toza MDEA eritmasi

Bu ma'lumotlar shuni ko'rsatdiki, kondan kelayotgan tabiiy gaz tarkibidagi deyarli barcha moddalar aminlar eritmalarining ko'piklanishiga olib keladi. Qaynash harorati 100°C dan yuqori bo'lgan uglevodorodlar (kondensat, neft), SFM, ayrim korroziyaga qarshi ingibitorlar eng ko'p ko'piklanishga sababchi bo'ladilar. Bundan tashqari etanolaminlar eritmalarining ko'piklanishiga mineral tuzlar ham sababchi bo'lishini bilgan holda Na_2SO_4 , KCl , $MgCO_3$, $CaCO_3$ va NH_4Cl tuzlarining MDEA eritmasining ko'piklanishiga ta'sirini aniqlash bo'yicha tajriba o'tkazildi va olingan natijalar 2-rasmda keltirildi.



2-rasm. MDEA eritmasida ko'pikning yashash muddati τ (soniya) ning tuzlar konsentratsiyasi C (%) ga bog'liqligi.

Bu grafik shuni ko'rsatdiki, noorganik tuzlar konsentratsiyasi ham aminlar eritmalarining ko'piklanishiga ta'sir qiladi, ya'ni tuzlar konsentratsiyasi oshishi bilan


aminlar eritmalarining ko'piklanish vaqti davomiyligi ham oshadi.

Dissertatsiyaning “**Mahalliy xomashyolar asosida modifikatsiyalangan faollashtirilgan ko'mir olishni tadqiq qilish**” deb nomlangan uchinchi bobida meva danaglari po'stlog'i va turli xil daraxtlar yog'ochlari asosida faollashtirilgan ko'mir olish jarayonini tadqiq qilish, faollashtirilgan ko'mir namunalari benzolni adsorbsiyalash izotermasi va tuzilish xossalarini aniqlash, faollashtirilgan ko'mirni akril kislota yordamida modifikatsiyalash bo'yicha amalga oshirilgan tadqiqotlar natijalari keltirilgan.

Ishning maqsadidan kelib chiqqan holda, regeneratsiyalangan MDEA eritmasini ko'pik hosil qiluvchi komponentlardan adsorbsion tozalash uchun mahalliy chiqindi xomashyolar: o'rik danagi po'stlog'i, g'o'za poyasi, tut, chinor, terak va archa asosida faollashtirilgan ko'mir namunalari olish jarayonining texnologik sxemasi (3-rasm, a) ishlab chiqilgan va uning asosida laboratoriya qurilmasi yig'ilgan (3-rasm, b).

Tadqiqotni amalga oshirishda sig'imi 0,25 m³ bo'lgan va elektr toki yordamida

qizdiriladigan laboratoriya trubali reaktorida havosiz sharoitda xomashyo karbonizatsiya qilindi. Reaktor ichidagi harorat termopara va potensiometr yordamida nazorat qilindi. Karbonizatsiya jarayoni 300-500°C harorat intervalida amalga oshirildi. Haroratni ko'tarish tezligi minutiga 7-10°C ni tashkil qildi. Karbonizatni faollashtirish suv bug'i yordamida o'sha reaktorda 600-800°C harorat intervalida amalga oshirildi. O'rik danagi po'stlog'i, g'o'za poyasi, tut, chinor, terak va archa yog'ochinini karbonizatsiya qilish jarayonidan quyidagi natijalar olindi (1-jadval).



3-rasm. Faollashtirilgan ko'mir olish qurilmasining texnologik sxemasi (a) va laboratoriya qurilmasi (b):

1 – suv uchun sig'im; 2 – manometr; 3 – mis kapillyar nay; 4 – bug'generatori; 5 – karbonizatsiyalash va faollashtirish reaktori; 6 – avtotransformator; 7 – millivoltmetr; 8 – sovutgich;

9 – yig'gich; 10 – gaz o'lchagich; 11 – bosim rostlagich; 12 – termopara uchun metall nay.


1-jadval

O'rik danagi po'stlog'i, g'o'za poyasi, tut, chinor, terak va archa daraxtlari yog'ochini karbonizatsiyalash sharoiti


(dastlabki xom ashyo miqdori 1000 g, haroratni ko'tarish tezligi minutiga 7-10°C)

Namunalar	Harorat, °C	Karbonizat massasi, g	Uyurmaviy zichlik, g/dm ³	Kullilik, %	C ₆ H ₆ bo'yicha adsorbsion faolligi, g/100 g
AU-KU (o'rik danagi)	300	632	644	4,3	0,87
	400	613	623	4,8	1,18
	500	521	536	5,0	1,25
AU-SX (g'o'za poyasi)	300	566	586	4,2	0,15
	400	453	463	4,5	0,24
	500	345	368	5,3	0,46
AU-T (tut)	300	713	724	4,8	0,84
	400	671	677	5,2	1,06
	500	625	634	6,1	1,22
AU-K (chinor)	300	626	637	5,2	0,81
	400	611	620	6,5	0,98
	500	515	527	7,3	1,15
AU-Top (terak)	300	619	624	4,2	0,34
	400	575	587	4,9	0,76
	500	505	512	5,6	0,82
AU-Ye (archa)	300	676	688	4,7	0,57
	400	633	651	5,1	0,78
	500	583	598	6,3	1,01


Olingan karbonizat namunalarini suv bug'i yordamida faollashtirish uchun reaktordagi harorat 600°C ga oshirildi va 200°C gacha qizdirilgan suv bug'i reaktordagi karbonizat namunasi orqali o'tkazildi. Karbonizat namunalarini suv bug'i bilan faollashtirish jarayoni 600-800°C harorat intervalida 2-6 soat vaqt oralig'ida amalga oshirildi. O'tkazilgan eksperimentlar natijalari asosida 4-6-rasmlarda keltirilgan nomogrammlar ishlab chiqildi.



5-rasm. Karbonizatlarni 800°C haroratda suv bug'i bilan faollashtirish jarayoni vaqtining faollashtirilgan ko'mirlarning kullilikga bog'liqlik grafiqi.



4-rasm. Karbonizatlarni 800°C haroratda suv bug'i bilan faollashtirish jarayoni vaqtining adsorbsion faolligiga bog'liqlik grafiqi.




6-rasm. Karbonizatlarni 800°C haroratda suv bug'i bilan faollashtirish jarayoni vaqtining faollashtirilgan ko'mirlarning uyurmaviy zichligiga bog'liqlik grafiqi.

4-6-rasmlardagi nomogrammlardan ko'rinib turibdiki, karbonizatlarni suv bug'i bilan faollashtirish jarayonining harorati 600-800°C intervalida ortishi

bilan faollashtirilgan ko'mir namunalarining benzol bo'yicha adsorbsion faolligi mos ravishda 0,49-2,09 g/100 g intervalida, kullilik 5,3-11,5 % intervalida ortib borgan, ammo uyurmaviy zichligi esa 623 g/dm³ dan 167 g/dm³ gacha kamayib borgan. Yana shuni ta'kidlash lozimki, faollashtirish jarayonini eng yuqori harorat 800°C va 2-6 soat vaqt intervalida amalga oshirish orqali yuqori adsorbsion faollikka erishilgan ammo kullilik ham mos ravishda oshib borgan, uyurmaviy zichlik esa kamayib borganini aniqlash mumkin. Hozirgi kunda, Muborak gazni qayta ishlash hamda Gazli gazni qayta ishlash zavodlarida ishlatilayotgan Rossiya Federatsiyasining AG-3 rusumli faollashtirilgan ko'miri dissertatsiya tadqiqotlari natijalarini taqqoslash uchun analog sifatida olingan bo'lib, uning uyurmaviy zichligi 400-500 g/dm³, kullilik esa 10-16 % ga teng bo'lgan sifat ko'rsatkichlari me'yorlab qo'yilgan. 4-6-rasmlardagi nomogrammlar tahlillariga asoslanib, bu me'yorga mos keluvchi faollashtirilgan ko'mir namunalari karbonizatni 800°C



haroratda 4 soat mobaynida suv bug‘i bilan faollashtirish orqali olinganini aniqlash mumkin. Bundan xulosa shuki, o‘rik danagi po‘stlog‘i, g‘o‘za poyasi, tut, chinor, terak va archa daraxtlari yog‘ochlari asosida yuqori sifatli faollashtirilgan ko‘mir olishda karbonizatlarni suv bug‘i bilan faollashtirish uchun 800°C harorat va 4 soat maqbul parametrlar sifatida qabul qilindi.

AU-KU, AU-T va AU-Top faollashtirilgan ko‘mir namunalariga benzolning adsorbsiyasi bo‘yicha tadqiqotlar $1,33 \cdot 10^{-3}$ Pa qoldiq bosimda va 298 K haroratda simobli klapanlar va Mak-Ben kvarts tarozusi bilan jihozlangan yuqori vakuumli uskunada amalga oshirildi. Prujining cho‘zilish darajasi KM-8 katetometr yordamida nazorat qilindi. 7-9-rasmlarda AU-KU, AU-T va AU-Top faollashtirilgan ko‘mir namunalariga benzolning adsorbsiyalanish izotermalari keltirilgan.



7-rasm. AU-KU faollashtirilgan ko‘mirda benzolning adsorbsiyalanish izotermasi.

8-rasm. AU-T faollashtirilgan ko‘mirda benzolning adsorbsiyalanish izotermasi.



9-rasm. AU-Top faollashtirilgan ko‘mirda benzolning adsorbsiyalanish izotermasi.

Faollashtirilgan ko‘mir namunalarida benzol adsorbsiyasining izotermasini aniqlashdan olingan natijalar asosida adsorbentlarning

solishtirma yuzasi, monoqatlam sig‘imi, mezo- va mikrog‘ovaklar sig‘imi hamda umumiy adsorbsiya hajmi kabi adsorbsiya-tuzilish xossalari BET tenglamasi bo‘yicha hisoblab aniqlandi. Hisoblashlardan olingan natijalar va boshqa xorijiy sanoat faollashtirilgan ko‘mirlarining adsorbsiya-tuzilish xossalari 2-jadvalda keltirildi.

AU-KU, AU-T va AU-Top faollashtirilgan ko‘mir namunalariga benzolning adsorbsiyalanish izotermalari hamda adsorbsiya-tuzilish xossalarini aniqlashdan

olingan natijalarga asoslanib, mazkur faollashtirilgan ko‘mirlar mezo- va mikrog‘ovakli ko‘mirlar turiga mansubligi aniqlandi.


2-jadval

Faollashtirilgan ko‘mirlarning adsorbsiya-tuzilish xossalari

Namuna	G‘ovak radiusi, Å (1Å=0,1nm)	a_m , mol /kg	Solishtirma yuza $S \cdot 10^{-3}$, m^2/g	Mikrog‘ovak lar sig‘imi $W_0 \cdot 10^{-3}$, m^3/kg	Mezog‘ovaklar sig‘imi, $W_{me} \cdot 10^{-3}$, m^3/kg	Umumiy adsorbsiya hajmi, $V_s \cdot 10^{-3}$, m^3/kg
AU-KU	11,5	1,77	426	0,262	0,029	0,291
AU-T	12,5	1,62	390	0,234	0,01	0,244
AU-Top	15,9	0,66	161	0,111	0,02	0,128
BAU	16,0	0,87	183	0,128	0,031	0,159
OU-A	9,00	2,12	475	0,390	0,140	0,530
FAS	13,2	1,33	282	0,210	0,05	0,215
Kokos yong‘og‘i asosidagi FK	12,3	1,67	410	0,258	0,059	0,317
Antrasitli FK	14,5	1,09	211	0,130	0,176	0,306


AU-KU va AU-T faollashtirilgan ko‘mirlarning adsorbsiya-tuzilish xossalari 2-jadvalda keltirilgan xorijiy analoglarining xossalaridan qolishmasligi va ayrim xossalari esa ustun ekanligi aniqlandi, ammo AU-Top faollashtirilgan ko‘mirning adsorbsiya-tuzilish xossalari esa bundan mustasno. Shuning uchun mahalliy xomashyolardan olingan AU-KU va AU-T hamda adsorbsion faolligi yuqori va kulliligi past bo‘lgan AU-K faollashtirilgan ko‘mir namunalari ishlatilgan aminlar eritmalarini tozalash bo‘yicha o‘tkaziladigan tadqiqotlar uchun tavsiya qilindi.

MDEAning suvli eritmasi tarkibida erigan termo barqaror tuzlarni va boshqa ko‘piklanishni keltirib chiqaruvchi organik moddalarni qisman xemosorbsiya orqali adsorbsiyalash uchun faollashtirilgan ko‘mirlarning g‘ovaklarida ushlanib qolingan funksional guruhlar va ularning faolligi kamlik qilishini inobatga olib, faollashtirilgan ko‘mir namunalari akril kislotani yordamida modifikatsiyalash bo‘yicha tadqiqotlar amalga oshirildi. Faollashtirilgan ko‘mir g‘ovaklariga akril kislotani shimdirish va uni g‘ovakda ushlanib qolishini, shuningdek, kislotadagi karboksil (COOH) guruhi sonini ko‘paytirish maqsadida akril kislotani poliakril kislotani polimeriga aylantirish bo‘yicha izlanishlar olib borildi. Tadqiqot natijalari asosida 10-11-rasmlarda keltirilgan nomogrammlar ishlab chiqildi. 10-11-rasmlarda keltirilgan nomogrammlarga asoslanib, faollashtirilgan ko‘mir namunalari deyarli barchasiga akril kislotaning 15 % suvli eritmasi boshqa konsentrsiyadagilariga nisbatan maksimum miqdorda yutilganini, shuningdek, poliakril kislotasini hosil qilish uchun akril kislotani shimdirilgan namunalarni 30 minut vaqt mobaynida 100°C harorat bilan qizdirishdan keyin akril kislotaning 15 % suvli eritmasi shimdirilgan ko‘mir namunalari massasi maksimum miqdorda qolganini aniqlash mumkin.




10-rasm. Akryl kislotasi konsentratsiyasini uning faollashtirilgan ko‘mirlarga shimdirilgan namunalarning massasiga bog‘liqlik grafigi

11-rasm. Akryl kislotasi konsentratsiyasini uning faollashtirilgan ko‘mirlarga shimdirilgan namunalarni qizdirishdan keyingi massasiga bog‘liqlik grafigi



Faollashtirilgan ko‘mir namunalarning g‘ovaklarida poliakryl kislotasi polimer shaklida hosil bo‘lib, ushlab qolganini aniqlash maqsadida ushbu namunalarning IQ-spektr tahlili amalga oshirildi. Tahlil natijalari 12-rasmida faqatgina o‘rik danagi po‘stlog‘i asosidagi faollashtirilgan ko‘mirni 15 % li akryl kislotasi yordamida modifikatsiyalashdan olingan namunalarning IQ-spektragrammasi misolida keltirildi.



12-rasm. O‘rik danagi po‘stlog‘i asosidagi faollashtirilgan ko‘mirni 15 % li akryl kislotasi yordamida modifikatsiyalashdan olingan namunalarning IQ-spektragrammasi


12-rasmida keltirilgan o‘rik danagi po‘stlog‘i asosidagi faollashtirilgan ko‘mir va boshqa faollashtirilgan ko‘mirlarni 15 % li akryl kislotasi yordamida modifikatsiyalashdan olingan namunalarning IQ-spektragrammasi tahlili modifikatsiyalangan faollashtirilgan ko‘mirlar tarkibida butilakrilat (C₇H₁₂O₂) – 718 sm⁻¹, izoamilformiat (C₆H₁₂O₂) – 714 sm⁻¹, etilakrilat (C₅H₈O₂) – 712 sm⁻¹, malein kislotaning metilvinil efiri – 712, 698 sm⁻¹, poliakryl kislotasi (C₂H₃COOH)_n – 701, 680 sm⁻¹, akrilonitril (CH₂=CH-C≡N) – 675, 672 sm⁻¹, poli-2-gidroksietil metakrilat (C₆H₁₀O₃) – 674 sm⁻¹, metilakrilat (C₄H₆O₂) – 669 sm⁻¹, polibutilmetakrilat (C₈H₁₄O₂) – 668 sm⁻¹, polimetilmetakrilat ((C₅H₈O₂)_n) – 662 sm⁻¹ kabi moddalar hosil bo‘lganini ko‘rsatdi.

Dissertatsiyaning “MDEAni ko‘pik hosil qiluvchi komponentlardan tozalash uchun modifikatsiyalangan faollashtirilgan ko‘mir olish jarayonining texnologiyasini ishlab chiqish” deb nomlangan to‘rtinchi bobida mahalliy xomashyolar asosida modifikatsiyalangan faollashtirilgan ko‘mir olish texnologiyasi va olingan namunalarni ishlab chiqarishda sinovdan o‘tkazish,

alkanolaminlarni filtrlashda ishlatilgan faollashtirilgan ko'mirlarni regeneratsiyalashni tadqiq qilish hamda mahalliy xomashyolar asosida modifikatsiyalangan faollashtirilgan ko'mirni ishlab chiqarish va amaliyotga joriy qilishdan kutilayotgan iqtisodiy samaradorlikni hisoblash bo'yicha amalga oshirilgan tadqiqotlar natijalari keltirilgan.

Respublikamizdagi barcha tabiiy gazni qayta ishlash zavodlarida qimmatbaho alkanolaminlarni tozalash uchun yiliga 300 tonna AG-3, HX-30 rusumli faollashtirilgan ko'mirlar (tonnasi 2500-3000 AQSh dollari) Rossiya va Xitoydan import qilinadi va bu o'z navbatida iqtisodiy jihatdan dolzarb hisoblanadi.

Bu ma'lumotlarga asoslanib, meva danaglari po'stlog'i va turli xil daraxtlar yog'ochi asosida modifikatsiyalangan faollashtirilgan ko'mir ishlab chiqarishning quvvati 300 t/yil bo'lgan texnologik tizim prinsipial sxemasi ishlab chiqildi. Bu sxema 13-rasmda keltirildi.



